

TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA O' QUVCHILARIDA EKOLOGIK TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH

**SUYUNOV DILSHOD
ABDULLAYEVICH**

*Termiz davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim metodikasi
kafedra o'qituvchisi
O'zbekiston Respublikasi
Surxondaryo viloyati Termiz shahri
<https://doi.org/10.47689/STARS.university-pp82-84>*

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologiyaga doir ijobiy munosabatlarni shakllantirish mazmuni, uning shakl va metodlari, nazariy va amaliy ahamiyati, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tafakkur, inson faoliyati va tabiat o'rtasidagi munosabatlar haqidagi ilmiy manbalarni singdirish borasida fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar va tushunchalar: tabiat, munosabat, tushuntirish, ekologik tarbiya, boshlang'ich sinf, ekologik tafakkur, mutafakkir, ta'lim, shakl, metod, foydalanish, meros, manba, o'qitish.

Azal-azaldan insoniyat taqdiri tabiat bilan bog'liq bo'lib kelgan. Tabiatga insoniyat uchun ozuqa va hayot manbai sifatida hamda muhim obyekt tarzida qaralgan. Tabiat ne'matlaridan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etgan. Lekin shunday bo'lsa-da ba'zi bir hollarda tabiatga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lmaganlar. Natijada, tabiatdan to'g'ri foydalanmaslik sababli ekologik muammolar vujudga kela boshladi. XXI asrda kishilik hamjamiyati global ekologik muammolarni hal qilish va inqirozdan chiqish uchun ijtimoiy munosabatlarga insonparvarlik nuqtayi nazaridan yondashish va biosferaning yanada ijobiy rivojlanishini ta'minlaydigan tabiat bilan o'zaro ta'sir konsepsiyasini ishlab chiqishini insoniyat yashab qolishining muhim faktorlaridan biri sifatida kun tartibiga qo'ymog'i lozim. Ekologik inqirozning oldini olish uchun insonlar ongida ekologiya va tabiatga nisbatan mehr tuyg'usini shakllantirish lozim bo'ladi.

Ekologik ta'lim-tarbiyaning mohiyati, g'oyaviy mazmuni, uning qonuniyatlari, samaradorlik shartlari, ekologik ta'lim mezonlarining falsafiy va madaniy kontekstini samaradorlik omillari orqali ishlab chiqish kun tartibidagi masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Shunday ekan, har bir davlat va jamiyat ekologiya va atrof-muhitga yondashuv pozitsiyalarni qayta ko'rib chiqishi: bunda inson omilining mohiyati, uning tabiat va jamiyatdagi o'rni, maqsad va vazifasi, burch va majburiyati, madaniy ongi va ijtimoiy faolligining rivojlanish tendensiyalari, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar hamda o'zaro ta'sir doirasining natijasi va oqibatini inobatga olish kerak bo'ladi.

Ekologik ta'lim jarayoniga zamonaviy innovatsion yondashuv tizimi joriy etilsa, insoniyat tabiat, atrof-muhit va kosmos bilan obyektiv zarur darajadagi aloqadorlikka erishishi va o'zaro uyg'unlikni shakllantirishi mumkin. Tabiat bilan uyg'un yashash, inson uning bir bo'lagi, degan tushuncha va gumanistik g'oyalarni singdiruvchi

ta'limning dasturiy tizimi bugungi kunda o'zini oqlamayotgandek, nazarimizda. Shunday davrlar ham bo'ldiki, insonlar ongida tabiat bitmas-tuganmas resurs manbai sifatida qaraldi. Tabiiy resurslar haqidagi noto'g'ri tushunchalarning paydo bo'lganligi, tugab-bitmas manba degan yondashuvning ustunlik qilishi va tabiiy elementlarning odamga xayolan bo'ysundirishga bo'lgan intilishning hali ham barham topmaganligi ekologik muvozanatni buzishga, ekotizimlarni yo'q qilishga asos bo'lib qolmoqda.

Sharq tafakkuri hamda dunyoqarashidagi tafovutlarning shakllanishi kishilik sivilizatsiyasi taraqqiyotiga borib taqaladi va ularning bir-biriga zidligi haqida mulohaza yuritish mumkin. G'arb insonlari ilohiy ijod harakatlarini davom ettirib, o'zlarini tabiatning maxsus ma'naviylashgan qismi sifatida e'tirof etgan holda atrofdagi olamni o'zgartirishga va uning insonga bo'ysundirilishiga doimiy harakatda bo'lib, tabiiy jarayonlarga maksimal darajada aralashgan holda ta'sir o'tkazib kelishga harakat qilishgan. Sharqda tabiat va inson munosabati ratsional va axloq normalariga bo'ysundirilgan bo'lib, Markaziy Osiyoning qadimiy manbasi "Avesto", Islom olamining muqqaddasi kitobi "Qur'oni Karim"da, Imom Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Ali Abu ibn Sino, Mahmad Koshg'ariy, Yassaviy, Naqshbandiy, Alisher Navoiy va boshqa qator allomalarning ilmiy ijod asarlarida tabiat insoniyatning eng oliy manbasi sifatida ulug'lanib, uni qadrlash, avaylab-asrash, yashash va tiriklik asosi, sog'lom turmush va fikr, yashnash va yosharishning manbai sifatida e'tirof etilgan hamda kishilik jamiyati insonlarining tabiatga yuqori hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo'lishi ta'kidlangan. Bir so'z bilan aytganda, tabiat bilan muloqotda axloq normalariga tayangan holda yondashuv tavsiya etilgan. Sharq madaniyatida tabiat qiymati inson qadriyatidan ustun turadi. Insonning ichki va tashqi faoliyati tabiatga moslashishni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, o'z-o'zini tarbiyalash, irodasini boshqarish, emotsiyalarga berilmaslik, oqillik va donolikni tafakkur etish va o'zini tutishga e'tibor berilgan. Inson bu yerda uning tabiatdan ajratilgan maxsus komponenti sifatida qabul qilinmaydi, aksincha, uning bir bo'lagi va rivojlantiruvchi omili sifatida kamolot va tarbiya singdirilgan.

Inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning tubdan o'zgarishini inson ishlab chiqaruvchiga aylanib, tabiiy muhitni o'zgartirish mumkinligini anglagan neolit inqilobi bilan bog'lashadi. Keyingi sanoatgacha bo'lgan bosqich qishloq xo'jaligining asta-sekinlik bilan o'sishi, hunarmandchilikning rivojlanishi, oddiy tovar ishlab chiqarishning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan holda, sanoat inqilobining ilmiy-texnik taraqqiyoti, texnogen sivilizatsiyaning bosqichma-bosqich shakllanishi oqibatida insonning texnikaviy tafakkur kuchi tabiat kuchlaridan ustun kelishiga olib kelgan holda ushbu taraqqiyot natijasi o'laroq inson o'zini o'zi yo'q qilish jarayoniga ham yo'l ochdi.

Insonning barqaror taqdiri va istiqbolli kelajagi uchun tabiat bilan o'zaro munosabatlarning zamonaviy pedagogik metodlariga tayangan fan dasturlarini tayyorlash va ijtimoiy falsafiy g'oyalar bilan to'yintirilgan madaniy yondashuvlarni yoshlar va insonlar hayotining ajralmas qismiga aylantirish yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlar salmog'i va samaradorligini oshirish davr talabidir. Ushbu masalada yerdagi hayotning o'zi tabiiy hodisa ekanligi, shaxs va tabiat munosabatlarining o'zaro uyg'unligi, ammo ta'sir doirasini kamaytirish yuzasidan ijodiy salohiyatining uzluksiz rivojlanishi uchun sharoit yaratish, shaxsning atrof-muhit uchun samaradorligi uning ma'naviy va axloqiy rivojlanishining eng muhim xarakter xususiyati ekanligi,

insonni tabiiy-ijtimoiy mavjudot va tabiatning fikrlovchi qismi sifatida talqin qilishi, odamning tabiat bilan birlashishi va dunyoni yangicha idrok etish orqali yuksak ma'naviyatga yo'l ochishi nazariyasi, umumiy birlik va o'zaro bog'liqlik g'oyasi asosida yoshlarga ta'lim-tarbiya berish ishning yana bir metodologik asosi bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, ekologik ta'lim va tarbiyani tashkil etishda atrof-muhitni tartibga solish, tabiat bilan munosabatni muvozanatga keltirish to'g'risidagi qonunlar va konsepsiyalarga tayangan holda zamonaviy pedagogik ta'limni tashkil etish, yosh avlodning ekologik qarashlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion pedagogik yondashuvlar, yoshlarda atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirining tubdan o'zgarishini yuzaga chiqaradigan ratsional yondashuvga asoslangan o'qitish dasturini ekologik ta'lim jarayonining metodologik va konseptual asoslari sifatida keltirib o'tish mumkin.

XX asrning ikkinchi yarmida inson ongi va tafakkurining mahsuli texnik yangiliklarning rivoji, industrial jamiyatga o'tish taraqqiyot mezonini belgilab berish bilan bir vaqtda insoniyat oldida juda ko'p va murakkab muammolar yuzaga keldiki, ular ta'sir doirasining miqyosi va ahamiyatiga ko'ra global muammolar nomini oldi. Ushbu global muammolardan biri ekotizimning barqarorlik holatidan beqarorlik holatiga o'tishi va insonning tabiatga ta'siri miqyosini haddan tashqari darajada orttirib borishidir.

Adabiyotlar:

1. Avesto. Tarixiy - abadiy yodgorlik / Tarjimon: A. Mahkamov. - T.: Sharq, 2001. - 384 b.
2. Adizov B. R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: Ped. fan. dok. ...diss. - T.:2003. - 320 b.
3. Az - Zamaxshariy, Abu-l Qosim Mahmud. Nozik iboralar. - T.: Kamalak, 1992. - 80 b.
4. Al - Buxoriy, Imom Ismoil. Hadis. Al jome' as-sahih. 4-kitob. - T.: - Qomuslar bosh tahririyati, 1997.- 528 b.
5. Aluyeva R.Sh. Amir Temurning ma'rifiy - tarbiyaviy qarashlari: Ped. fan. nomz. ... diss. avtoref. - T.: - 2006. - 20 b.
6. Aliqulov A., Nizomov F. Alisher Navoiy asarlarida tabiatning e'zozlanishi haqida //O'zbekistonda ijtimoiy fanlar j. , 1994. - 1-2-sonlar. - 38 - 42 b.
7. Atrof - muhit va biz. Bolalar va ota - onalar uchun ekologiya alifbosi / Talqin. - T.: RTM, 2003. -64 b.
8. Atrof - muhitni asrang. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun qo'llanma. - Qarshi: Nasaf , 2004. - 30 b.
9. At - Termiziy, Abu Iso. Ash shamoil an-nabaviya. - T.: Cho'lpon, 1993. - 112 b.
10. Bahodirov O. Ma'naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, alloma, adiblar). -T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1999, - 392 b.